



Conference Proceedings

# BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS

San Francisco, USA



**International Conference  
BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS**

September, 10 - December, 15, 2020, San Francisco, California, USA

Conference Proceedings

**B&M Publishing  
San Francisco, California, USA**

**B&M Publishing  
Research and Publishing Center «Colloquium»**

**International Conference  
BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS**

*Science editor: R. Draut*

Copyright © 2020  
by Research and Publishing  
Center «Colloquium»

All rights reserved.

Published by B&M Publishing,  
San Francisco, California

ISBN 978-1-941655-96-2

DOI: [http://doi.org/10.15350/L\\_2/7](http://doi.org/10.15350/L_2/7)

---

Research Article

**LINGUISTIC BASIS OF TEACHING ORAL COMMUNICATION OF STUDENTS IN GERMAN LANGUAGE LESSONS**

*Maxmurova Mavjuda Halimovna*

Teacher of the Department of Foreign Languages in Natural Sciences, Faculty of Foreign Languages, Bukhara state university, Uzbekistan.

DOI: [http://doi.org/10.15350/L\\_2/7/25](http://doi.org/10.15350/L_2/7/25)

---

**Abstract.**

This article will focus on the linguistic foundations of teaching students oral communication in German lessons.

**Key words:** speaking, listening and understanding, training exercises, speech exercises, training exercises, non-professional exercises.

Nutq faoliyatining asosiy maqsadi turli vaziyatlarda insonlar o'rtasida vujudga keladigan muloqotni ta'minlashdir. Og'zaki nutq tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, u ko'proq ohang va turli imo-ishoralar qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Unda murakkab grammatik qurilmali gaplar ishtirok etmaydi.

Chet tildagi nutqni *tinglab tushunish* malakalari tekshirilganda chet tilda va ona tili va chet til ishtirokida og'zaki va yozma mashqlar bajarildi. Bir tili nazoratda audiomatni tinglash, uning umumiy mazmunini, asosiy g'oyasini tushunish, savollarga javob berish, mazmuni o'z so'zlari bilan hikoya qilish va matn yuzasidan savollar berish, undan yangi axborotni topish, unga munosabat bildirish singari nutqiy vazifalar bajarildi. Tinglab tushunish malakalari davriy va yakuniy nazoratda yoppasiga yozma tarzda tekshirildi.

Gapirish malakalarini yakka, yalpi va guruhviy tekshirildi. Har bir o'quvchining yakka nutqni egallash darajasini bilish maqsadida yakka tekshiruv o'tkazildi: tayanch so'zlar, mavzular, rasmlar asosida gapirish, matn yuzasidan savollarga javob berish shular jumlasidandir. Sinfdagi o'quvchilar bekor qolib ketmasliklarining oldini olish maqsadida yoppasiga nazorat qilishdan keng foydalanildi.

Chet tilda *gapirishni* tekshirishda quyidagilarga e'tibor qaratildi: (1) juft nutqda sherigini tushunish va muloqot niyatini tushunish va unga mos javob replikasini o'rinli ishlatish, suhbatning davomiyligini ta'minlash, grammatik me'yorga rioya qilish; (2) monolog shakidagi nutq jarayonida hikoya qilish, tasvirlash, axborot berish kabi turli kommunikativ o'nalishdagi bog'lanma nutq yuritish; (3) nutqda ishlatilgan materialning o'zlashtirilgan darajasi, gapirish tezligi, nutq vaziyatiga mosligi kabilar.

Og'zaki mashqlar deganda, o'qituvchiga taqlid qilish, so'zlarni o'rni almastirish, aytilganni o'zgartirish, savolga javob qaytarish va savol berish, fikrga qo'shilish yoki inkor etish mashqlari nazarda tutiladi. Og'zaki nutq jarayonida yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklarni ro'yxatga olish qiyin kechadi. Shu bois, ishni osonlashtirish maqsadida texnik vositalar yordamida o'quvchining nutqi yozib olindi va tekshirildi.

Nutq malakalari kichik hajmli sodda birliklardan to yirik hajmdagi murakkab matnlargacha bo'lgan nutq hodisalarini o'zida qamrab olgan mashqlarni ko'p marta takroran bajarish orqali egallamdi. Ma'lumki, mashqlar bajarish orqali ijobiy natijaga ega bo'lish maqsad qilib olinadi. Mashqlarning samaradorligi uni tashkil etishga bog'liqdir.

Mashqlar sistemasida *o'quv mashqlari* nomi bilan yuritibidigan tayyorlov va nutq mashqlari alohida xususiyatga ega. Tayyorlov mashqlari o'qituvchi yoki diktorga taqlid qilish, so'zlarning shaklini o'zgartirib aytilish, jumlar tuzish va ularni guruhlarga bo'lish orqali til materialiga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlardir. Ular til hodisalarining shakliy

(formal), ma'naviy (semantik), qo'llanish (funktional) qiyinchiliklarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Nutqiy mashqlar o'z navbatida *tayyorlangan va tayyorlanmagan* mashqlarga bo'linadi. *Tayyorlangan* mashqlarda tayanch so'zlar lahtirokida fikrni o'zgartirib va to'ldirib izhor etish, fikrni bayon etishda rasm, kino, diafil'm va matn singari axborot manbalaridan foydalanish va o'rganilgan mavzu yuzasidan reja tuzish hamda rejaga bo'yicha hikoya qilib berish asos qilib olinadi. *Tayyorlanmagan* mashqlarda esa o'quvchilardan oldin ko'rgan fil'm va o'qigan asarlarga o'z munosabatini bildirish yoki o'y-fikrlarini o'z hayot tajribasidan kelib chiqqan holda gapirib berish tavsiya etiladi.

Kommunikativ (nutqiy) mashqlar kommunikativ motivatsiya nutqiy jarayonda o'rganilayotgan tilni turli stimullarini shaxsiy fikrlarini ifodalashda qo'llaniladi. Kommunikativ mashqlar qiyin topshiriqlarni bajarishda, ya'ni muhokama va qarashlarning to'g'ri yoki noto'g'rligini (xolis, noxolis) asoslash, kengaytirilgan fikr bildirishda qo'llaniladi.

Mashq mazmunini tushunish uchun quyidagilar bajariladi: matnni ichda o'qish va ma'nosini anglash, asosiy mazmunini bir-ikkita gapda bera olish, matnni og'zaki yoki yozma ravishda tahlil qilish, tayanch so'zlar yordamida matndagi savollarga javob berish, abzats ma'nosini tushunish.

Mashqlar mazmunini aniqlashda quyidagilar bajariladi: matnni alohida guruhlariga ajratish, mantiq jihatidan mos keladigan savollar qo'yish, abzatsning bayon tartibi. Ba'zi qiyinchiliklar o'qiyotgan matn mazmunini ochish, sharhlash, yangi olingan axborotni oldingisi bilan chog'ishtirish, asosiy voqea va hodisalarni qiyoslash, qahramonlar, muallif fikrini uqa bilish; avtomning nuqtai nazar, matnning mazmunini fahmlash, o'qilganlik yuzasidan o'z fikrini bildirish.

CHet til o'qitish metodikasida mashqlarni retseptiv va reproduktiv turlarga ajratiladi. Retseptiv mashqlar ifodalangan fikrni idrok etishga o'rgatadi. Bunga tinglab tushunish va o'qish mashqlari misol bo'la oladi. Reproductiv mashqlarga gapirish va yozuvni o'rgatish mashqlari kiradi. Inson gapirganda va yozganda o'z fikrini ifodalashga harakat qiladi.

Mashg'ulot davomida nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv)ga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bajariladi. O'quvchida til bilishga bo'lgan qiziqish kuchli bo'lsa, mashqlarni tez va oson o'zlashtirib oladi. Mashqlarni tanlashda ularning intellektual qobiliyatini hisobga olish o'qituvchidan psixologik bilimni va kasbiy malakani talab etadi. Kollej o'quvchilari o'spirin yoshiga o'tish davrida bo'lgani bois, ularning ruhiy lechinmalarini nazorat qilishni taqozo etadi.

Ma'lumki, har qanday tilni egallash murakkab jarayon hisoblanadi. Nemis tili ham shular jumlasiga kiradi. Nemis tili darslari samaradorligi, o'quvchilarni mustaqil tarzda ijodiy fikrlashga, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olishga o'rgatish bilan o'lchanadi.

Nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish (dialog va monolog) turlari og'zaki nutqqa mansub bo'lsa, o'qish (o'rganuv o'qish, tanishuv o'qish, kuzatuv o'qish) va yozuv yozma nutqqa tegishlidir. Nutq faoliyatining ushbu turlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablari darajasida nutqiy malakalar takomillashtiriladi. Nutqiy malakalar til materialli[leksika, grammatika va talaffuz]ni o'zlashtirish va uni nutq faoliyatida qo'llash ko'nikmalariga tayangan holda shakllantiriladi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранных языкам. 2-е изд. – М.: АПРТИ, 2003. – 286 с.

Jalilov J.J. CHet til o'qitish metodikasi: CHet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1996. – 368 b.

Research Article

LEXICAL-STYLISTIC GRADUINOMY IN UZBEK, ENGLISH, RUSSIAN

*Ne'matova Mohibegim Faziddinovna<sup>1</sup>*

<sup>1</sup>Department of Foreign Languages in Natural Directions, Faculty of Foreign Languages, Bukhara state university, Uzbekistan.

DOI: [http://doi.org/10.15350/L\\_2/7/26](http://doi.org/10.15350/L_2/7/26)

**Abstract.**

The article deals with the lexico-stylistic graduinomy in the Uzbek, English and Russian languages.

**Key words:** lexical graduinomy, stylistic graduinomy, lexical hierarchy, epithet, metaphor, synecdoche.

Тилшунослиқда антонимия ва синонимия каби семантик категорияларни ўзида бириктирувчи градуинимик муносабатлар нутқ равиши ва мазмундорлигини таъминлашга хизмат қилади. Бу эса, ўз навбатида, маънодош лексемаларнинг даража ва миқдор жиҳатидан фарқларини илмий асослаш, ҳар бир тилнинг серкирралигини очиб беришга имкон яратди.

Ҳар сўз танлаш санъати ҳусусида борар жан, бўёқдорлик, экспрессивлигини ошириш учун, албатта, сўзларнинг нутққа жой берувчи турларидан оқилона ва контекстга мос равишда фойдаланиш ўта муҳим. Бунда нафақат лексик градуинимияни, балки стилистик градуинимияни ҳам эътиборга олиш зарурдир.

Инглиз ва ўзбек тилларида лексик стилистикада даражаланишни таҳлил қилиш шунинг кўрсаткичи, лексик даражаланишда бўёқдор ва кўчма маънодаги сўзлар градуинимик қатордан жой олмайди, лексик стилистикада эса уларнинг контекстуал маъносидан келиб чиққан ҳолда турли бўёқдорликка эга сўзлар, кўчма маъноли лексемалар, шевага хос сўзлар, эпитет, метафора, синекдоха каби фигуралар ҳам градуинимик қатордан жой эгаллайди. Лексик градуинимик қатор ичига лексик стилистикадаги даражаланиш қаторини жойлаштириш мумкин. Улар ижобий ҳамда салбий бўёқдорлигининг очиб боришига кўра даражаланиш қаторини қуйидагича тузиб, ўзаро фарқли ва ўхшаш жиҳатларини аниқлаш мумкин.



1-раом. Лексик градуинимия ва стилистик градуинимия

Инглиз тилида лексик градуинимия тадқиқ этилмаганидек, бу ҳодиса лексик стилистикада ҳам ўрганилмаган. Таҳлилга тортилган барча мисоллар COCA (The Corpus of Contemporary American English) корпуси асосида аниқланди, бинобарини инглиз тилшунослигида бошқа халқро тиллардаги каби корпусларнинг яратилганлиги ушбу ҳодисани ўрганиш учун қулай имконият яратди. Аниқ ва мукамал таҳлилга эришишда тадқиқот жараёнида фойдаланилган корпусларнинг аҳамияти жуда катта бўлди. Чунки бу корпуслардаги жонли тил, бадиий ва публицистик асарлардаги бўёқдор сўзларнинг таъсири ҳамда таҳлили инглиз тилида ҳам, ўзбек тилидаги каби

LINGUISTIC BASIS OF TEACHING ORAL COMMUNICATION OF STUDENTS IN GERMAN LANGUAGE LESSONS Maxmurova Mavjuda Halimovna	65
LEXICAL-STYLISTIC GRADUINOMY IN UZBEK, ENGLISH, RUSSIAN Ne'matova Mohibegim Fazliddinovna	67
THE PEDAGOGICAL SKILL OF A MODERN TEACHER Haydarov Muzaffar O'rmonovich	70
VISUAL METHODS OF TEACHING HISTORY AND WAYS OF THEIR FORMATION Sharipova Munisa Erkinovna	72
THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF CONDUCTING ART IN THE SYSTEM OF MUSIC EDUCATION Maftuna Komiljonovna Alimbayeva, Madina Uzakovna Teshayeva	74
CONCERT GENRE INTERPRETATION PROBLEMS (IN THE EXAMPLE OF A CONCERTO BY FRANCIS POULENC FOR PIANO AND ORCHESTRA) Maftuna Komiljonovna Alimbayeva, Madina Uzakovna Teshayeva	76
APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS Pulatova Shakhzoda Khaydarovna	78
PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE Tolibova Nodira Nusratovna	80
PHRASEOLOGISMS OF THE ENGLISH LANGUAGE WITH PROPER NAMES Mirkhadjaeva Mahliyo Islomovna	82
PROBLEMS OF CORRECT SPONUNCEMENT IN TEACHING ENGLISH Bakhronova Zulfiya Ravshanovna	84
PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FOREIGN LANGUAGE TEACHER Bobokulova Gulrukh Sharipovna	86
PHRASEOLOGICAL VARIANTS IN THE GERMAN LANGUAGE Samadova Sevar Akhatovna	88
ORGANIZATION OF GERMAN LANGUAGE PHRASEOLOGY TRAINING Mirzaeva Mukhayo Ruzievna	90
TYPES OF DICTIONARIES AND THEIR STRUCTURE Khusenova Mehriniso Uktamovna	92
ENCRYPTION IS A KEY ELEMENT OF INTEGRATED SECURITY Ataeva Gulsina Israilovna, Shokirov Obidzhon	94
THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS Ismoilova Mahsuma Narziqulovna, Barrayeva Sevara Shoim qizi, Samiyeva Gulshan Afisher qizi	97
SPREAD OF CORRUPT PRACTICIES IN THE RUSSIAN REGIONS Boris Zalivanskiy, Elena Samokhvalova	99
USE OF ETHNO-ARTISTIC TECHNOLOGIES IN THE WORLD ART LESSONS Julia Mikhailova	102
MASS ONLINE COURSES AS ONE OF THE INNOVATIVE WAYS OF LEARNING IN THE MODERN HIGHER EDUCATION SYSTEM Nadezhda Kornienko, Anastasia Miroshnikova, Elena Malyshkina	105
DISTANCE LEARNING FOR MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS: PLUS AND MINUS Natalia Bratchikova	107
SARS-COV-2 and CARDIOVASCULAR SYSTEM Arina Vyuzhanina, Sergey Jeyranyan, Polina Plotnikov, Elena Udina	109
STUDY OF THE ORGANIZATION OF VOLUNTEER ACTIVITIES IN THE TERRITORY OF THE PERM KRAJ DURING THE PERIOD OF COVID-19 NEW CORONAVIRAL INFECTION Vladislava Galanova	112
CLINICAL FEATURES OF THE COURSE OF COVID-19 IN PATIENT WITH END-STAGE OF CHRONIC KIDNEY DISEASE (CLINICAL CASE) Anastasia Gantseva, Danil Udin	114
ANALYSIS OF THE DEMAND AND PURCHASE OF MEDICINES DURING THE COVID 19 PANDEMIC Grebneva Marina, Maksimova Vladislava, Maria Kurilyak	117
ANALYSIS OF THE HEALTH STATE OF 4 COURSES STUDENT IN THE PERIOD OF DISTANCE LEARNING Nataliya Zhdanova, Elitzaveta Sheveleva, Maria Kurilyak	120
COURSE OF NEW CORONAVIRUS INFECTION IN PERM REGION Zhelkina Angelina	123
HOW DOES COVID-19 PROGRESS WITH OBESITY Mariya Kanaeva, Maria Kurilyak	125